

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
4-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный
журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY' ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,

Axmedov Durbek Qudratillaevich, i.f.d., professor

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,

Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,

Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,

Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor

Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.

Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor

Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor

Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)

Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor

Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)

Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD

Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD

Asqarova Muhabbat Ibraximovna

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Абдурахманов Каландар Ходжаевич

Модель компетенций и траектории повышения квалификации в профессиональном образовании в условиях внедрения искусственного интеллекта..... 5

Зокирова Нодира Каландаровна

Человеческий капитал и креативная экономика регионов Узбекистана оценка потенциала и точки роста..... 19

Усманов Анвар Саидмахмудович

Теоретический аспект устойчивого экономического роста..... 32

Мамадалиева Хафиза Холдаровна

Ўзбекистондаги демографик ўзгаришлар ва уларнинг иқтисодий ўсишга таъсири..... 43

Каримова Дилдора Мирсабитовна

Перспективы трансформации демографического потенциала узбекистана в демографический дивиденд..... 52

Саиджаббор Шоира Саидгаффор кизи

Экономическая самостоятельность женщин — историческая эволюция, изменение роли женщин на рынке труда и влияние социально-экономических факторов..... 60

Карабаева Гулнора Шарафитдиновна

Роль креативного сектора в обеспечении молодёжной занятости на рынке труда..... 69

Eshqulova Xilola Shoyimqul qizi, Muradova Alina Anvar qizi

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida xizmat ko'rsatish sohasidan samarali foydalanish istiqbollari..... 78

Кахрамонов Хуршидjon Шухрат угли

Современные подходы к обеспечению конкурентоспособности предприятий жилищно-коммунального хозяйства..... 85

Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li

Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri: imkoniyatlar va xavf-hatarlar..... 90

Abdurahmonov Azizbek Akram o'g'li

Investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy kapital uchun institutsional sharoitlarni takomillashtirish..... 96

Ilyasova Barno Axmadovna

qtisodiyot tarmoqlarini soliqlar orqali tartibga solish va rag'batlantirish samaradorligini oshirish xususida..... 102

Matkarimova Intizor Atabaevna	109
<i>O'zbekiston hududida aholini ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik.....</i>	
Khudoyberdiev Sardor Ismailovich	
<i>The impact of small entrepreneurship on the socio-economic development of regions in our country and its econometric analysis.....</i>	119
Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
<i>Innovatsion iqtisodiyot sharoitida tikuv-trikotaj korxonalarida mehnat bozorining transformatsiyasi va ishlab chiqarishni samarali tashkil etish mexanizmlari.....</i>	129
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
<i>Atrof-muhit o'zgarishlari sharoitida iqtisodiy xavfsizlikning strategik ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish istiqbollari.....</i>	134
Egamnazarov Khusniddin Fakhriddin ugli	
<i>Integrating international experience into sustainable tourism development: evidence from Uzbekistan.....</i>	141
Mirzaeva Matluba Gaybulla kizi	
<i>Digitalization of the banking sector in Uzbekistan: drivers and implications for financial stability.....</i>	152
Nasirova Nargiza Tursunpulatovna	
<i>Namangan viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....</i>	163
Shaxidova Dilafruz Muxtarovna	
<i>Kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlardan foydalanish holati: uning muammolari va yechimlari.....</i>	172
Bobomuradova Sarvinoz Ziyadullayevna	
<i>The algorithm for forming transfer prices in trade enterprises and their role in segment reporting.....</i>	180
Batirov Farxad Bakitovich	
<i>Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish orqali zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi.....</i>	189
Abdullayeva Aziza Murot qizi	
<i>Ipoteka kreditlash bozorini rivojlantirish istiqbollari.....</i>	194
Alimov Fazliddin Xalimovich	
<i>Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyatini iqtisodiy- statistik tahlili.....</i>	201
Bahriddinova Muazzam Azam qizi	
<i>XItoy davlatida kambag'allikni qisqartirish siyosati.....</i>	209

QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY TIZIMLAR FAOLIYATINI IQTISODIY- STATISTIK TAHLILI

Alimov Fazliddin Xalimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Ekonometrika kafedrası, 1 kurs mustaqil izlanuvchi
falimov@sqb.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlari faoliyati iqtisodiy-statistik tahlil asosida o'rganilgan. Tahlil jarayonida 2018–2024-yillar davomida viloyatning yalpi hududiy mahsuloti, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari hududning iqtisodiy salohiyatini baholash, resurslardan samarali foydalanish hamda barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy-statistik tahlil, hududiy rivojlanish, yalpi hududiy mahsulot, sanoat, xizmatlar sohasi, bandlik.

ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Алимов Фазлиддин Халимович

Ташкентский государственный экономический университет
Кафедра эконометрики, самостоятельный соискатель 1 курса

Аннотация. В данной статье проведён экономико-статистический анализ социально-экономических систем Кашкадарьинской области. В ходе исследования рассмотрены основные показатели развития валового регионального продукта, промышленности, сельского хозяйства и сферы услуг за 2018–2024 годы. Полученные результаты имеют практическое значение для оценки экономического потенциала региона, эффективного использования ресурсов и формирования стратегий устойчивого развития.

Ключевые слова: экономико-статистический анализ, региональное развитие, валовой региональный продукт, промышленность, сфера услуг, занятость.

ECONOMIC AND STATISTICAL ANALYSIS OF SOCIO-ECONOMIC SYSTEMS IN KASHKADARYA REGION

Alimov Fazliddin Khalimovich

Tashkent State University of Economics
Department of Econometrics, 1st year independent doctoral candidate

Annotation. *This article presents an economic and statistical analysis of the socio-economic systems of the Qashqadaryo region. The study examines key indicators of the gross regional product, industry, agriculture, and service sector development for the period of 2018–2024. The results have practical significance for assessing the region's economic potential, ensuring efficient use of resources, and developing sustainable development strategies.*

Keywords: *economic and statistical analysis, regional development, gross regional product, industry, service sector, employment.*

Kirish.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri — hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini to'liq safarbar etish va ularning kompleks rivojlanishini ta'minlashdir. Mamlakatning barqaror o'sishini ta'minlashda har bir viloyatning iqtisodiy tizimi o'ziga xos resurslar, ishlab chiqarish imkoniyatlari va mehnat bozori bilan farqlanadi. Shu bois, hududiy rivojlanish masalalarini chuqur iqtisodiy-statistik tahlil asosida o'rganish, mavjud omillarni baholash va istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning eng yirik iqtisodiy hududlaridan biri bo'lib, u mamlakat sanoat salohiyatining muhim qismini tashkil etadi. Viloyat hududida neft va gaz sanoati, kimyo, qurilish materiallari ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasi tarmoqlari faol rivojlanmoqda. Shu bilan birga, hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning samarali faoliyat yuritishi nafaqat viloyat, balki butun mamlakat iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, iqtisodiy o'sish sur'atlariga qaramay, Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarishning hududiy nomutanosibligi, infratuzilmaning ayrim tarmoqlarida modernizatsiya darajasining pastligi, bandlik va daromadlar o'sishida tafovutlar mavjud. Shuning uchun hududning iqtisodiy-statistik ko'rsatkichlarini tizimli tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish zarur.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlari faoliyatini iqtisodiy-statistik tahlil asosida o'rganish, rivojlanish dinamikasini baholash hamda hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish yo'nalishlarini belgilashdan iboratdir. Shu maqsadda tadqiqotda 2018–2024-yillar davridagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, tarmoqlar kesimidagi o'sish sur'atlari hamda aholi bandligi tendensiyalari statistik usullar yordamida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi.

Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni ilmiy asosda tahlil qilish iqtisodiyot fanining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, so'nggi yillarda bu borada ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3067-son qarori hududlarda iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini aniqlash, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish hamda infratuzilmani modernizatsiya qilishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon hududiy iqtisodiy tizimlarning samarali faoliyat yuritishi uchun normativ-huquqiy asos yaratdi [1].

S.S. G'ulomov va B.X. Qosimov o'z tadqiqotlarida hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish tarmoqlarining diversifikatsiyasi hamda hududlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi [2]. Ularning fikricha, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqarorligi, avvalo, samarali boshqaruv mexanizmlari va statistik tahlil asosida qabul qilinayotgan qarorlarning sifatiga bog'liq.

A. Vohidov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekiston iqtisodiyotining hududiy tarkibini modernizatsiya qilish masalalari o'rganilgan. Muallif hududlarda sanoatni rivojlantirishda texnologik yangilanish, infratuzilma modernizatsiyasi hamda kadrlar salohiyatini oshirish ustuvor yo'nalishlar ekanini asoslab beradi [3].

Hududiy iqtisodiy tizimlarning statistik tahlili bo'yicha B. Rasulov tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarda iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimining o'zaro bog'liqligi, regressiya va korrelyatsiya tahlili orqali hududlar rivojlanish darajasini baholashning ilmiy asoslari ishlab chiqilgan [4]. Bu metodologiya Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishda ham samarali qo'llanilishi mumkin.

D. Murodova o'z ilmiy ishida hududiy iqtisodiy tizimlarni boshqarish samaradorligini baholash uchun kompleks indikatorlar tizimini taklif etgan. Unga ko'ra, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar o'zaro uyg'un holda tahlil qilinishi lozim [5]. Mazkur yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni kompleks baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan tayyorlangan manbalarda ham hududiy rivojlanishning statistik tahliliga katta e'tibor qaratilgan. Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) hisobotlarida O'zbekistonning janubiy viloyatlarida, jumladan, Qashqadaryo hududida iqtisodiy diversifikatsiya, bandlikni oshirish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida ko'rsatilgan [6][7].

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida 2018–2024-yillar oralig'ida Qashqadaryo viloyatida yalpi hududiy mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari hamda xizmatlar sohasi hajmi izchil o'sib borganligi aniqlanadi [8]. Bu esa ilmiy manbalarda keltirilgan nazariy qarashlarning amaliy tasdig'i sifatida xizmat qiladi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarini rivojlantirish uchun mavjud ilmiy ishlanmalar iqtisodiy tahlilning turli yondashuvlarini taklif etadi. Biroq, hududiy ko'rsatkichlarning kompleks iqtisodiy-statistik tahlili va ularning barqaror rivojlanishga ta'siri yo'nalishida chuqurroq tadqiqotlar olib borish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlari faoliyatini baholashda iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodlari sifatida taqqoslash, dinamika qatorlarini tahlil qilish, tuzilma tahlili va ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash usullari qo'llanildi.

Tadqiqot uchun O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Qashqadaryo viloyati hokimligi va Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2018–2024-yillar bo'yicha rasmiy ma'lumotlar bazasi asos sifatida olindi. Ma'lumotlar tahlilida Excel va SPSS dasturlaridan foydalanilib, iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasi, o'sish sur'atlari hamda sektorlar kesimidagi nisbatlar aniqlanib, natijalarga asoslangan umumiy xulosalar ishlab chiqildi.

Metodologik asos sifatida S. S. G'ulomov hamda B. Rasulov larning hududiy rivojlanish va statistik tahlilga oid ilmiy yondashuvlari, shuningdek, BMT va Jahon bankining hududiy barqaror rivojlanishga doir hisobotlari asos qilib olindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Qashqadaryo viloyati O'zbekiston Respublikasining yirik iqtisodiy hududlaridan biri bo'lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YaIM) o'rtacha 6,4 foizini tashkil etadi. 2018–2024-yillar davomida viloyat iqtisodiyoti izchil o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, viloyatning yalpi hududiy mahsuloti (YHM) 2018-yilda 26,8 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 49,2 trln so'mga yetgan, ya'ni 1,83 baravar o'sish kuzatilgan.

1-jadval

**Qashqadaryo viloyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
(2018–2024-yillar)**

Ko'rsatkichlar	2018	2020	2022	2024	O'sish (%)
Yalpi hududiy mahsulot (trln so'mda)	26,8	32,5	41,8	49,2	183
Sanoat mahsulotlari hajmi (trln so'mda)	9,4	12,1	16,3	19,7	210
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari (trln so'mda)	8,1	9,6	11,2	13,8	170
Xizmatlar sohasi hajmi (trln so'mda)	6,2	8,4	10,7	13,5	217
Aholi soni (mln kishi)	3,1	3,25	3,45	3,6	116
Band aholining ulushi (%)	58,2	59,4	61,0	63,1	—

Tahlil shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sanoat va xizmatlar sohasi bo'lgan. Ayniqsa, xizmatlar sektorida o'sish sur'ati 2018–2024-yillar oralig'ida 2,17 baravarni tashkil etgan. Bu, bir tomondan, aholining iste'mol talabining ortishi, ikkinchi tomondan, hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kengaygani bilan izohlanadi [9].

Qishloq xo'jaligi hamon viloyat iqtisodiyotining tayanch tarmog'i bo'lib qolmoqda. 2024-yilda uning YHMdagi ulushi 28 foiz, sanoat ulushi 40 foiz, xizmatlar sohasi ulushi esa 32 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy tuzilmaning asta-sekin diversifikatsiyalanayotganini, ya'ni xizmatlar sektorining o'sib borayotganini ko'rsatadi.

Aholi bandligi ham ijobiy o'zgarishlarga ega bo'lib, 2018-yildagi 58,2 foizdan 2024-yilda 63,1 foizga yetgan. Shu bilan birga, ishsizlik darajasi 2018-yildagi 9,5 foizdan 2024-yilda 7,2 foizgacha kamaygan [10]. Bu natijalar hududda iqtisodiy faol aholining ko'payishi va yangi ish o'rinlari yaratilganini anglatadi.

Qashqadaryo viloyatining investitsion muhitida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan. 2024-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 15,4 trln so'mni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 2,2 baravar o'sgan. Buning asosiy sabablari sifatida yirik sanoat loyihalarining amalga oshirilishi, energetika sohasida modernizatsiya ishlari, hamda qishloq infratuzilmasining rivojlanishi qayd etiladi [11].

Shuningdek, hududiy ijtimoiy soha ko'rsatkichlari ham yaxshilangan: 2024-yilda ta'lim va sog'liqni saqlash sohasiga yo'naltirilgan byudjet xarajatlari 2018-yilga nisbatan 1,9 baravar ko'paygan. Bu esa aholining turmush sifati oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan [12].

2-jadval

Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy tarmoqlarning o'sish dinamikasi va YHMDagi ulushi (2018–2024-yillar)

Yil	Sanoat mahsulotlari hajmi (trln so'm)	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari (trln so'm)	Xizmatlar sohasi hajmi (trln so'm)	Sanoat ulushi (%)	Qishloq xo'jaligi ulushi (%)	Xizmatlar ulushi (%)
2018	9,4	8,1	6,2	35,1	30,2	34,7
2019	10,6	8,8	7,1	35,8	29,7	34,5
2020	12,1	9,6	8,4	36,9	29,5	33,6
2021	14,0	10,4	9,6	38,3	28,5	33,2
2022	16,3	11,2	10,7	39,0	26,8	34,2
2023	18,1	12,4	12,2	39,5	27,1	33,4
2024	19,7	13,8	13,5	40,0	28,0	32,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi 2024-yil ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, 2018–2024-yillar oralig'ida sanoat tarmog'ining YHMDagi ulushi 35,1 foizdan 40 foizgacha oshgan. Bu viloyat iqtisodiyotida sanoatlashtirish jarayonining faollashganini bildiradi.

Aksincha, qishloq xo'jaligi ulushi 30,2 foizdan 28 foizgacha pasaygan bo'lsa-da, mahsulot hajmi 1,7 baravar ko'paygan — bu tarmoqda mehnat unumdorligi oshganini ko'rsatadi [12].

Xizmatlar sektorida esa 2018-yildan 2024-yilgacha 2,17 baravar o'sish kuzatilgan, bu esa hududiy iqtisodiyotda xizmatlar ulushi barqarorlashayotganini anglatadi.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining tarmoq tuzilmasida diversifikatsiya jarayoni faol davom etmoqda va bu hududning barqaror o'sish salohiyatini yanada mustahkamlaydi.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlari barqaror o'sish bosqichiga kirgan bo'lib, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasi diversifikatsiyalanmoqda, aholi farovonligi oshmoqda, investitsiya jozibadorligi kuchaymoqda. Shu bilan birga, tahlillar viloyat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini kengaytirish va resurslardan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatmoqda.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan iqtisodiy-statistik tahlillar natijasida Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining 2018–2024-yillar oralig'ida barqaror o'sish bosqichiga kirgani

aniqlandi. Yalpi hududiy mahsulot hajmi 26,8 trillion soʻmdan 49,2 trillion soʻmgacha yetib, 1,83 baravar oʻsgan. Bu viloyat iqtisodiy salohiyatining yildan-yilga ortib borayotganini koʻrsatadi.

Sanoat tarmogʻi viloyat iqtisodiyotining asosiy drayveri boʻlib, 2018–2024-yillar davomida ishlab chiqarish hajmi 9,4 trillion soʻmdan 19,7 trillion soʻmgacha oshib, 210 foizlik oʻsish qayd etilgan. Xizmatlar sohasi esa 2,17 baravar oʻsib, YHM tarkibida 32 foizlik ulushga ega boʻlgan. Bu jarayon hudud iqtisodiyotining tarkibiy diversifikatsiyasi bosqichma-bosqich amalga oshayotganidan dalolat beradi.

Qishloq xoʻjaligi tarmogʻida ham barqaror rivojlanish kuzatilgan: mahsulot hajmi 1,7 baravar oshgan boʻlsa-da, uning YHMDagi ulushi 30,2 foizdan 28 foizgacha kamaygan. Bu esa iqtisodiy faoliyatning sanoat va xizmatlar sohalariga koʻproq yoʻnaltirilayotganini bildiradi. Aholi bandligi 2018-yildagi 58,2 foizdan 2024-yilda 63,1 foizga oshgan, ishsizlik darajasi esa 9,5 foizdan 7,2 foizgacha kamaygan. Bu holat viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash siyosati samaradorligini koʻrsatadi.

Hududning investitsion jozibadorligi ham sezilarli darajada oshgan: asosiy kapitalga yoʻnaltirilgan investitsiyalar 2018-yilga nisbatan 2,2 baravar koʻpayib, 15,4 trillion soʻmga yetgan. Bu koʻrsatkichlar Qashqadaryo viloyatining sanoatlashgan, zamonaviy infratuzilmaga ega hudud sifatida shakllanayotganini tasdiqlaydi.

Ushbu natijalar asosida quyidagi xulosalar va takliflar ilgari suriladi:

- Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti barqaror rivojlanish yoʻlida boʻlib, mavjud resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni yanada chuqurlashtirish zarur.

- Sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish orqali eksport hajmini oshirish maqsadga muvofiq.

- Qishloq xoʻjaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish — suv tejovchi sugʻorish tizimlari, agrodron va sunʼiy intellekt asosida monitoring tizimlarini kengaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli oshiradi.

- Xizmatlar sektorini rivojlantirish uchun turizm, logistika va IT-sohalarida yangi klaster tizimlarini yaratish lozim. Bu nafaqat iqtisodiy oʻsish, balki yangi ish oʻrinlari yaratilishiga ham xizmat qiladi.

- Investitsion muhitni yaxshilash maqsadida xususiy sektorni infratuzilma loyihalariga faol jalb etish va xorijiy investorlar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

- Aholi farovonligini oshirish uchun taʼlim va sogʻliqni saqlash sohalariga yoʻnaltirilgan mablagʻlarni koʻpaytirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish lozim.

- Raqamli iqtisodiy boshqaruv tizimini joriy etish, ya'ni statistik ma'lumotlar bazasini raqamli platformalar orqali onlayn tahlil qilish boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti hozirda strukturaviy o'sish va diversifikatsiya bosqichida bo'lib, innovatsion yondashuvlar, investitsion faollik va inson kapitalini rivojlantirish orqali kelgusi yillarda yanada yuqori natijalarga erishish imkoniyatiga ega.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2017, iyun 29). *Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida* (PQ-3067-son qaror). Toshkent: Lex.uz.
2. G'ulomov, S. S., & Qosimov, B. X. (2020). *Hududiy iqtisodiyot va menejment asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
3. Vohidov, A. (2021). *O'zbekiston iqtisodiyotining hududiy tarkibini modernizatsiya qilish muammolari*. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Rasulov, B. (2023). *Hududiy iqtisodiy rivojlanishning statistik tahlili*. TDIU ilmiy jurnali, (3), 45-52.
5. Murodova, D. (2022). *Hududiy iqtisodiy tizimlarni boshqarish samaradorligini baholash*. Samarqand davlat universiteti ilmiy jurnali, (2), 34-40.
6. World Bank. (2024). *Uzbekistan Economic Update 2024: Strengthening Regional Competitiveness*. Washington, D.C.: World Bank Publications.
7. United Nations Development Programme (UNDP). (2023). *Regional Development Report: Central Asia*. New York: UNDP.
8. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). *Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha statistik ma'lumotlar*. <https://stat.uz>
9. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. (2024). *Ishsizlik darajasi bo'yicha hisobot*.
10. Qashqadaryo viloyati hokimligi. (2024). *Hududiy iqtisodiy rivojlanish dasturi*. <https://qashqadaryo.uz>
11. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). *Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotlar*.
12. World Bank. (2024). *Uzbekistan Economic Update 2024: Strengthening Regional Competitiveness*. Washington, D.C.

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

